

Date: 13th May-2026

DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK VA HISOBODORLIKNI
OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INSTITUTSIONAL
MEXANIZMLARNING ROLI

Ilmiy rahbar: **Ataniyazov Jasur Hamidovich**

TDIU Xalqaro moliya kafedrası mudiri, professor, DSc

Abdullayev Izzatbek Akramxon o'g'li

TDIU Moliya fakulteti 3-bosqich talabasi

e-mail: izzatbekabdullayev2005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni oshirishda raqamli texnologiyalar va tizimli mexanizmlarning amaliy ta'sirini tahlil qiladi. Elektron byudjet, ochiq ma'lumotlar va elektron davlat xaridlari kabi raqamli platformalar orqali byudjet jarayonlari jamoatchilik, auditorlar va nazorat organlari uchun ochiq bo'lib borayapti. Qonunchilik bazasi va tizimli islohotlar, xususan "Davlat xaridlari to'grisida"gi qonun orqali adolatli raqobat va korrupsiyaga qarshi mexanizmlar mustahkamlanmoqda. **O'zbekiston kontekstida rasmiy ma'lumotlar asosida** bu mexanizmlarning samaradorligi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik, davlat xaridlari, elektron byudjet.

Abstract: This paper analyzes the role of digital technologies and institutional mechanisms in enhancing financial transparency and accountability in the Republic of Uzbekistan. Digital platforms such as electronic budgeting, open data and e-procurement have made budget processes accessible to the public, auditors, and oversight bodies. Legal frameworks, including the Public Procurement Law, promote competitive procurement and anti-corruption controls. This study uses official Uzbekistan data to evaluate the efficiency of these mechanisms in strengthening transparency.

Keywords: digital technologies, financial transparency, accountability, public procurement, e-budget.

Аннотация: В статье анализируется роль цифровых технологий и институциональных механизмов в повышении финансовой прозрачности и подотчетности в Республике Узбекистан. Цифровые платформы, такие как электронный бюджет, открытые данные и электронные закупки, обеспечивают доступ к бюджетным процессам для общества, аудиторов и надзорных органов. В рамках правовой базы, включая закон о государственных закупках, укрепляются принципы конкурентных закупок и антикоррупционный контроль. В исследовании используются официальные данные Узбекистана для оценки эффективности этих механизмов.

Ключевые слова: цифровые технологии, финансовая прозрачность, подотчетность, государственные закупки, электронный бюджет



Date: 13th May-2026

KIRISH

Davlat moliyasi boshqaruvida **moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik** jamiyat ishonchi, iqtisodiy barqarorlik va samarali davlat boshqaruvi uchun muhim omillardir. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi **raqamli transformatsiya yo‘lini tanlab**, byudjet boshqaruvi, davlat xaridlari va moliyaviy nazorat jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali optimallashtirishga keng e‘tibor qaratmoqda.

2020 yilda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan **byudjet ma‘lumotlarini ochiqlash strategiyasi** davlat byudjeti bo‘yicha ma‘lumotlarni ochiq va tushunarli shaklda taqdim etishni ko‘zda tutadi hamda fuqarolarni budjet jarayonlariga jalb etishni maqsad qilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq ma‘lumotlar” portalida jamoatchilik davlat byudjetining turli qatlamlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni erkin ko‘rishi mumkin. Bu buxgalteriya hisobotlari, xarajatlar, mablag‘larning taqsimlanishi va byudjet amalga oshirilish jarayonlariga oid statistik ma‘lumotlardan iborat.

Bundan tashqari, 2019-yildan boshlab davlat xaridlari sohasida elektron tendersiz jarayonlarni bosqichma-bosqich tugatish va barcha xaridlarni raqamli platformaga o‘tkazish bo‘yicha qonunchilik bazasi yasaldi. Bu qonunchilik, xususan, 2019 yil 5 dekabrda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlari to‘grisida”gi qonun va unga doir elektron tizimlar orqali tenderlar jarayonini raqamlashtirishni istisnosiz amalga oshirishni ta‘minlab kelmoqda. Ushbu maqolada **raqamli texnologiyalar (elektron byudjet va e-xaridlar)** va **institutsional mexanizmlarning (nazorat organlari, qonunchilik sharoitlari, jamoatchilik nazorati)** O‘zbekiston kontekstida shaffoflik va hisobdorlikni oshirishning asosiy omillari sifatida o‘rganiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rasmiy statistik ma‘lumotlar tahlili: O‘zbekiston hukumatining ochiq ma‘lumotlar portalini, budjet hisobotlari va davlat xaridlari statistikasi o‘rganildi. **Qonunchilik bazasi tahlili:** O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari va budjet bo‘yicha qabul qilingan qonunlari, farmonlari, shu jumladan davlat xaridlaridagi raqamli platformalarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. **Taqqoslama:** O‘zbekistonning raqamli shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlaridagi chora-tadbirlar xalqaro tajriba asosida chiroyli tarzda solishtirildi. Natijada bu elementlar birgalikda davlat moliyasining shaffofligi va hisobdorligini qanday oshirayotgani, hamda tizimning samaradorligi aniqlangan.

NATIJA VA TAHLILAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning moliyaviy shaffoflikni oshirishga qaratilgan raqamli islohotlari ko‘plab ijobiy natijalarga olib keldi. Elektron budjet, ochiq ma‘lumotlar va elektron xaridlar tizimlari orqali budjet jarayonlari endi juda tez, samarali va jamoatchilik uchun ochiq tarzda amalga oshiriladi. Bu jarayonlar fuqarolik jamiyati institutlari, auditorlar va nazorat organlari faoliyatini sezilarli darajada kengaytirdi. Raqamli tizimlar korrupsiyani kamaytirishga, xarajatlarni optimallashtirishga, hamda hukumat xarajatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, **raqamli savodxonlikni oshirish va axborot xavfsizligi choralari** tizimning yanada samarali va ishonchli bo‘lishi uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.



Date: 13th May-2026

1. Raqamli budjet tizimining kengayishi

O‘zbekiston davlat moliyasini boshqarish sohasida raqamli byudjet tizimidan foydalanishni kengaytirmoqda. Prezident farmoni asosida 2026 yil avgustgacha 29,000 dan ortiq byudjet tashkilotlari elektron budjet shakllantirish va tasdiqlash tizimiga o‘tadi, bu esa byudjet rejalashtirishdagi shaffoflikni sezilarli darajada oshiradi.

Elektron budjet tizimi orqali byudjetning shakllanishi, tasdiqlanishi, amalga oshirilishi va monitoringi raqamlashtiriladi. Bu optimallashtirish holati hisobdorlikni oshirishda **raqamli iz qoldirish mexanizmini** amalga oshiradi: izchil, statistik asosda jamoatchilik va auditorlar uchun ma’lumotlar platformada doimiy ravishda mavjud bo‘ladi.

2. Davlat xaridlari tizimining modernizatsiyasi

O‘zbekiston 2019 yildan boshlab elektron xaridlar portalini joriy etib, barcha davlat xaridlarini raqamli shaklga o‘tkazmoqda. Raqamli tender platformasi e-procurement orqali **xaridlar jarayoni ochiq, ommaviy va tezkor bo‘lib**, shu orqali shaffoflik sezilarli darajada oshdi — korrupsion xavflar kamaydi va teng raqobat muhitini mustahkamladi. 2025–2030 yillarda davlat rahbari tomonidan tasdiqlangan strategiyaga ko‘ra, 2030 yilga borib barcha davlat xaridlari uchun **80% raqobatli jarayonlar amalga oshiriladi**, bu esa raqobatni oshirish orqali xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, 2026 yil martidan boshlab sun‘iy intellekt modulini joriy etish orqali narx belgilash mexanizmlari avtomatlashtiriladi, bu esa tender jarayonida yuqori yoki past narxlar orqali suiiste’mollarning oldini olishni maqsad qiladi.

3. Qonunchilik va jamoatchilik nazorati

O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik bazasi budjetni va davlat xaridlarini monitoring qilishni mustahkamlash yo‘lida doimiy tahrir etilib kelinmoqda. Qonunlar shu jumladan jamoatchilik nazoratini faollashtirishni, tender natijalarini ochiq e‘lon qilishni va elektron tizimlarni asos qilib qo‘yadi, bu esa huquqiy kafolat sifatida tashkil etilgan.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar O‘zbekiston davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynamoqda. Elektron budjet va e-procurement tizimlari byudjet jarayonlarini jamoatchilik, auditorlar va nazorat organlari uchun ochiq qiladi. Qonunchilik mexanizmlari bu jarayonlarni huquqiy asosda kafolatlab, korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda raqamli savodxonlikni oshirish va tizim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T.S.Malikov, N.H. Haydarov. Davlat moliyasi. Darslik – Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2014.
2. T.S.Malikov. Moliya. Darslik – Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2018.
3. **Gov.uz.** O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
4. **OldData.gov.uz.** *O‘zbekiston Ochiq Ma’lumotlar Portali.* <https://olddata.gov.uz/>
5. **Uzdaily.uz.** “O‘zbekiston Moliya vazirligi davlat xaridlarida elektron tenderlarni o‘tkazish uchun raqamli platformani ishga tushirdi.”

